

QASHQADARYO VILOYATIDA AGROSANOAT KLASTERLARINI HUDUDIIY REJALASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY GEOGRAFIK MODELI

Yaxshiboyev Barot Abdulhaqovich

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarining hududiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy geografik model ishlab chiqilgan. Tadqiqotda viloyatning tabiiy-resurs salohiyati, agroiklimiy sharoitlari, demografik omillar, transport-logistika infratuzilmasi hamda mavjud ishlab chiqarish ixtisoslashuvi kompleks tahlil qilinadi. Hududlar kesimida agrosanoat klasterlarini joylashtirish va rivojlantirishning funksional-bosqichli modeli taklif etilib, unda qishloq xo'jaligi xomashyosini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarish jarayonlarining o'zaro integratsiyasi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, agrosanoat klasterlari, hududiy rivojlanish modeli, iqtisodiy geografik yondashuv, qishloq xo'jaligi, sanoat integratsiyasi, hududiy ixtisoslashuv, barqaror rivojlanish.

Abstract. This scientific article develops an economic and geographical model aimed at ensuring the territorial development of agro-industrial clusters in the Kashkadarya region. The study comprehensively analyzes the natural resource potential of the region, agro-climatic conditions, demographic factors, transport and logistics infrastructure, and existing production specialization. A functional-stage model of the location and development of agro-industrial clusters across regions is proposed, which justifies the mutual integration of the processes of cultivation, processing, storage of agricultural raw materials, and the release of finished products to domestic and foreign markets.

Keywords: Kashkadarya region, agro-industrial clusters, territorial development model, economic and geographical approach, agriculture, industrial integration, territorial specialization, sustainable development.

Kirish. Jahon miqyosida qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining o'zaro integratsiyasi asosida shakllanayotgan agrosanoat klasterlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, hududlar raqobatbardoshligini oshirish va qishloq joylarni barqaror rivojlantirishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrosanoat klasterlari ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarini – xomashyo yetishtirishdan tortib qayta ishlash, logistika va tayyor mahsulotni bozorga chiqarishgacha – yagona

hududiy tizimda birlashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois global miqyosda agrosanoat klasterlarini hududiy rivojlantirishni ilmiy asosda modellash, ularning joylashuv omillari va hududiy ixtisoslashuvini aniqlash zamonaviy iqtisodiy geografiyaning dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, agrosanoat integratsiyasini kuchaytirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik va oziq-ovqat sanoati klasterlari mamlakat hududlarida bosqichma-bosqich joriy etilib, ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini bozor mexanizmlari asosida tashkil etish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynamoqda. Biroq klasterlarning hududiy joylashuvi, ixtisoslashuvi va rivojlanish darajasi viloyatlar kesimida bir xil emasligi, mavjud tabiiy-iqtisodiy farqlarni yetarli darajada hisobga olgan ilmiy asoslangan hududiy modellar zarurligini ko'rsatmoqda.

Qashqadaryo viloyati tabiiy-resurs salohiyati, agroiqlimiy sharoitlarning xilma-xilligi, keng qishloq xo'jaligi yer maydonlari hamda agrar ishlab chiqarishda band aholi ulushining yuqoriligi bilan respublikada muhim agrar hududlardan biri hisoblanadi. Viloyatda donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik yo'nalishlari yetakchi bo'lib, ularni chuqur qayta ishlash va hududiy jihatdan samarali tashkil etish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarini hududiy rivojlantirishning ilmiy asoslangan modelini yaratish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, hududlararo nomutanosiblikni kamaytirish va viloyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Iqtisodiy geografiyada agrosanoat klasteri hududiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ixtisoslashuvi natijasida shakllangan, qishloq xo'jaligi xomashyosini yetishtirish, uni qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlarini yagona hududiy makonda birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvda klaster hududning tabiiy-resurs salohiyati, tarixan shakllangan agrar ixtisoslashuvi hamda tumanlararo ishlab chiqarish aloqalariga tayanadi. Qashqadaryo viloyati misolida agrosanoat klasterlari alohida korxonalar yig'indisi emas, balki tumanlar kesimida shakllangan agrar ishlab chiqarish yo'nalishlarini sanoat va logistika bilan integratsiyalashgan hududiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida qaraladi.

Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tumanlar ixtisoslashuvini hisobga olgan holda hududiy farqlangan modelni yaratishni taqozo etadi. Bunday model viloyatning har bir tumanida mavjud agrar salohiyatdan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish va qayta ishlash o'rtasidagi hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda agrosanoat

tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratiladi. Natijada, iqtisodiy geografik yondashuv asosida shakllantirilgan klasterlar Qashqadaryo viloyatining umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi.

Qashqadaryo viloyati agrosanoat klasterlarini rivojlantirish uchun muhim tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega bo'lib, uning hududiy rivojlanishida yer va suv resurslari hal qiluvchi o'rin tutadi. Viloyat hududining katta qismi sug'oriladigan dehqonchilikka mos bo'lib, Qashqadaryo daryosi, Qarshi magistral va Mirishkor kanallari (manba-Amudaryo) va boshqa irrigatsiya tarmoqlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlaydi. Iqtisodiy geografik yondashuvda yer-suv resurslarining hududiy taqsimoti tumanlar ixtisoslashuvini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi va aynan shu omil agrosanoat klasterlarini joylashtirishning boshlang'ich sharti bo'lib xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyatida shakllangan agrosanoat klasterlari hududiy joylashuvi jihatidan tumanlarning tabiiy-iqtisodiy sharoitlari va tarixan shakllangan ishlab chiqarish ixtisoslashuviga bevosita bog'liq holda taqsimlangan. Viloyatning sug'oriladigan voha hududlarida, xususan Qarshi, Koson, Kasbi va Ko'kdala tumanlarida paxta-to'qimachilik hamda donchilik yo'nalishidagi klasterlar ustunlik qilsa, tog' oldi hududlarida — Shahrisabz, Kitob va Yakkabog' tumanlarida bog'dorchilik, uzumchilik va meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan klasterlar shakllangan. Cho'lga yaqin hududlarda, jumladan Muborak va Nishon tumanlarida esa chorvachilik va yem-xashak bazasiga tayanadigan klasterlar rivojlanmoqda. Ushbu hududiy taqsimot iqtisodiy geografik yondashuvda klasterlarning tabiiy va iqtisodiy omillarga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Agrosanoat klasterlarining tumanlar kesimidagi ixtisoslashuvi ularning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi. Paxta-to'qimachilik klasterlari mavjud hududlarda ishlab chiqarish zanjiri nisbatan to'liq shakllangan bo'lib, xomashyo yetishtirishdan tortib ip-kalava va tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan bosqichlar hududiy jihatdan integratsiyalashgan. Meva-sabzavotchilik va bog'dorchilik klasterlarida esa qayta ishlash va saqlash infratuzilmasining rivojlanish darajasi tumanlar bo'yicha notekis bo'lib, ayrim hududlarda xomashyo yetishtirish ustunlik qilsa, qayta ishlash bosqichi yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat klasterlarning hududiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarish zanjirining hududiy tashkil etilishi klasterlar rivojlanishidagi asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Qashqadaryo viloyatida ayrim klasterlarda xomashyo yetishtirish, qayta ishlash va logistika bo'g'inlari bir hududda mujassamlashgan bo'lsa, boshqa hududlarda ushbu bosqichlar tumanlararo aloqalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa transport xarajatlarining oshishiga va hududiy tafovutlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Iqtisodiy geografik nuqtai nazardan ishlab

chiqarish zanjirining hududiy uzluksizligini ta'minlash klasterlarning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Kompleks modelning tuzilishi funksional-bosqichli elementlar asosida shakllantirilgan bo'lib, u agrosanoat ishlab chiqarishining barcha asosiy bo'g'inlarini qamrab oladi. Birinchi bosqichda qishloq xo'jaligi xomashyosini yetishtirish (dehqonchilik va chorvachilik), ikkinchi bosqichda xomashyoni dastlabki va chuqur qayta ishlash, uchinchi bosqichda saqlash va logistika, to'rtinchi bosqichda esa tayyor mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish jarayonlari mujassamlashadi. Ushbu bosqichlarning hududiy jihatdan uyg'unlashuvi klaster doirasida ishlab chiqarish zanjirining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Modelda hududiy ixtisoslashuv alohida metodologik ahamiyatga ega bo'lib, viloyat tumanlarining agroiklimiy va iqtisodiy xususiyatlariga asoslanadi. Tog' oldi tumanlarida bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik klasterlari, sug'oriladigan voha hududlarida paxta-to'qimachilik va donchilik klasterlari, cho'lga yaqin tumanlarda esa chorvachilik va yem-xashak bazasiga tayangan klasterlarni rivojlantirish modelning hududiy asosini tashkil etadi. Bunda tumanlararo kooperatsiya va ixtisoslashuv klasterlarning integratsion aloqalarini mustahkamlab, hududiy sinergiya effektini yuzaga keltiradi.

Kompleks modelda integratsion aloqalar ishlab chiqarish, transport-logistika, ilmiy-ta'lim va institutsional subyektlar o'rtasidagi hamkorlik orqali namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlash korxonalari, logistika markazlari va bozor infratuzilmasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik klasterlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Iqtisodiy geografik nuqtai nazardan mazkur model Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarini hududiy rivojlantirishning ilmiy asoslangan, amaliy jihatdan qo'llash mumkin bo'lgan konseptual mexanizmi sifatida qaraladi.

jadval.

Qashqadaryo viloyati agrosanoat klasterlarini hududiy rivojlantirishning kompleks modeli tuzilmasi

Model elementi	Mazmuni	Hududiy ifodasi (misol)
Xomashyo yetishtirish	Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish	Qarshi, Koson, Shahrisabz, Kitob
Qayta ishlash	Dastlabki va chuqur qayta ishlash korxonalari	Qarshi shahri, Koson, Yakkabog'
Saqlash va logistika	Omborlar, sovutkichlar, transport tarmoqlari	Qarshi transport tuguni

Hududiy ixtisoslashuv	Tumanlarning agrar yo'nalishlarga ixtisoslashuvi	Tog' oldi – bog'dorchilik; voha – paxtachilik
Integratsion aloqalar	Ishlab chiqarish–logistika–bozor tizimi	Tumanlararo va viloyatlararo aloqalar

Taklif etilayotgan agrosanoat klasterlarini hududiy rivojlantirish modelini amaliy joriy etish bir qator mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Avvalo, viloyat va tuman darajasida strategik rejalashtirish va koordinatsiya tizimi tashkil etiladi, bunda klasterlarning ishlab chiqarish, qayta ishlash va logistika bo'g'inlari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda muvofiqlashtiriladi. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasida davlat–xususiy sheriklik mexanizmlari joriy etilib, investitsiyalarni jalb qilish va mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Mazkur mexanizm viloyatdagi klasterlarning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi va hududiy rivojlanishning asosiy poydevorini tashkil qiladi.

Xulosa. Umuman olganda, Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlarini hududiy rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, tabiiy-iqtisodiy va agroiklimiy sharoitlar, tumanlar kesimida mavjud klasterlarning joylashuvi va rivojlanish darajasi tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, viloyatning hududiy ixtisoslashuvi, yer-suv resurslari, agroiklimiy salohiyat, demografik omillar va transport-logistika infratuzilmasi agrosanoat klasterlarini samarali joylashtirish va ishlab chiqarish zanjirini uzluksiz integratsiyalashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, tumanlararo ixtisoslashuv va integratsion aloqalar hududiy sinergiya yaratib, klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan kompleks model agrosanoat klasterlarini hududiy rivojlantirishning ilmiy asoslangan, amaliy qo'llash mumkin bo'lgan mexanizmini ifodalaydi. Modelning joriy etilishi investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, qo'shimcha qiymatni oshirish va hududiy barqarorlikni ta'minlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy samaralarni yuzaga chiqaradi. Shu tariqa, Qashqadaryo viloyati uchun ishlab chiqilgan hududiy klasterlash modeli viloyatning uzoq muddatli agrar va sanoat rivojlanishini jadallashtirish, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish hamda raqobatbardosh va barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qiluvchi strategik ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. Agrar sohadagi islohotlar - klaster tizimiga o'tish, yerlarni xususiylashtirish va fermerlar huquqlarini himoya qilish. Qishloq xo'jalik vazirligi ma'ruza tezislari 2021.
<http://www.tfqm.uz/analytics/index.php?page=post&id=7https://regulateon.gov.uz/uz/documents/2104>
3. А.Х. Бердиев. Перспективы деятельности кластера в сельскохозяйственной сфере: проблемы и решения. Электронное научно-практическое периодическое издание. «Экономика и социум». № 12 (115). декабрь 2023.
4. Концепция формирования и развития инновационно-промышленных кластеров в Республике Узбекистан.
5. Классификация туристических кластеров / «Все о туризме – туристическая библиотека». – Режим доступа: http://tourlib.net/statti_tourism/bakumenko.htm.
6. Yakhshiboev B.A. Main directions of cluster development in Uzbekistan / Электронное научно-практическое периодическое издание. «Экономика и социум». №9 (124). 2024.
7. Yaxshiboyev B.A. Agroklastarlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasi / Zamonaviy geografiyada innovatsion g'oyalar: Raqamli iqtisodiyot va gis texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Qarshi I-qism 2024 yil 25-26-oktabr. B. 361-364.
8. Yaxshiboyev B.A. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirishning iqtisodiy geografik xususiyatlari Образование наука и инновационные идеи в мире. Международный научный электронный журнал. Выпуск журнала №-52 Часть-3_ Сентябрь –2024
9. Fayzullayev M.A. O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi. Monografiya. T.: Kitob bilim yog'dusi. 2024. – 258 bet.
10. Yaxshiboyev B.A. Qashqadaryo viloyati meva-sabzavotchilik klasterlari rivojlanishining hududiy xususiyatlari. Fan va jamiyat. Ilmiy-uslubiy jurnal. 2025 6/1-son
11. Yaxshiboyev B.A. Qashqadaryo viloyati paxta-to'qimachilik klasterlarining hududiy tashkil etilishi. "geodeziya, kartografiya va geoinformatika" Ilmiy-texnik jurnal. 2025 yil 4-son